

**TIBBIYOT OLIYGOHLARI TALABALARIDA XAVOTIRLANISH  
DARAJASINING IMTIXON JARAYONLARI BILAN BOG'LIQLIGINI O'RGANISH**

**Xolmo'minov A.E., Iskandarova D.E., Dusov A.X.**

*Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston*

**Dolzarbliyi.** Bugungi davr talabalari orasida axborot almashinuvni va yangilanishining shiddatli o'zgarishlariga moslashish, zarur ma'lumotlarni keraksizlaridan ajratib olish va vaqtan unumli foydalanish dolzARB muammolardan biri ekanligi nafaqat talabalarni, balki keljakka e'tiborsiz bo'lmagan har qanday insonni o'yantiradi. Ushbu holat talabalar orasida xavotir xissini uyg'otadi va bu ko'pincha me'yor darajasida, ba'zi holatlarda esa patologiya sifatida o'rganilmoqda. Tibbiyot oliygohlariDA o'qiydigan talabalardan boshqa oliygoh talabalariga nisbatan talab etiladigan yuqori aqliy, hissiy va jismoniy yuklamalar xavotir bilan bog'liq tadqiqotimizni aynan ular o'rtasida o'tqizishimizning asosiy sababi bo'ldi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib xavotir shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni kamaytirish, patologik xavotirli buzulishlarni oldini olishga jamoat e'tiborini qaratish.

**Tadqiqot usuli va obyekti.** Taqdiqotda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialidan random tarzda tanlangan 5 kurs talabalari (n=60) obyekt sifatida tanlandi. Ular temperament bo'yicha uch guruhga bo'lindi. Har bir guruhdan imtixon oldi va imtixondan keyingi xavotirlanish darajasi aniqlandi. Temperamentni aniqlashda EPI so'rovnomasidan, xavotirlanish darajasini aniqlashda esa STAI shkalasidan foydalanildi.

**Natijalar.** O'tqazilgan EPI so'rovnama narijalariga ko'ra random tarzda tanlangan 5 kurs talabalaridan 16 tasi ekstrovert, 12 tasi introvert, 36 tasi ambivert ekanligi aniqlandi. STAI xavotir shkalasi yordamida imtixondan oldin o'tqizilgan so'rovnama xuloslari quyidagicha: 16 ta ekstrovert orasidan 5 ta talabada engil darajadagi xavotirlanish aniqlandi. 12 ta introvertlar ichidan 4 ta talabada yengil darajadagi xavotirlanish aniqlandi. Ambivertlar orasidan 7 ta talabada yengil darajali xavotirlanish aniqlandi. Imtixondan keying natijalar quyidagicha bo'ldi: ekstrovertlar orasida-1 ta; introvertlar orasida -1 ta; ambivertlar orasida 0 ta. Talabalar orasida o'rta va og'ir xavotirlanish aniqlanmadi. Yengil xavotirlangan talabalardan 2 ta talabada xavotirning yengil darajasi imtixondan o'tgandan keyin ham yo'qolmaganligi aniqlandi. STAI shkalasida qayta qayta xavotir darajasi o'lchanganda aniqlangan ekstrovert talabada shaxsiy xavotir darajasi yo'qolmaganligi aniqlandi. Xavotir aniqlangan jami 16 ta talabadan faqat bitta introvert talaba yiqilgan va ayni shu talabada imtixondan keyin ham yengil xavotirlanish qayd qilingan. Umumiy xisobda olinganda 60 ta talabaning 16 (26.66%) tasida yengil xavotirlanish aniqlangan, 44 (73.33%) tasida xavotirlanish aniqlanmagan. Yengil xavotir aniqlangan talabalarning 16 tadan faqat 2 tasi (12.5%) imtixondan yiqilgan. Xavotir aniqlanmagan 44 ta talabaning 8 tasi (18.18%) imtixondan yiqilgan. !6 ta talabaning faqat bittasida shaxsiy xavotirlanish darajasi yuqori chiqqan, aynan shu talaba imtixondan yiqilgan.

**Xulosa.** Yuqoridagi keltirilgan natijalardan quyidagi xulosalar olindi: - xavotir aniqlangan talabalar orasida o'qish jarayonini o'zlashtirish nisbatan yuqori; - qayta tekshiruvda xavotirlanishi yo'qolmagan talabalarda shaxsiy xavotirlanish yoki imtixonni topshirolmaganlik xissi muxim rol

o‘ynaydi; - talabalar orasida temperamentga xavotirlanish darajasini bog‘lab o‘rganishda EPI va STAI so‘rovnomalari samarali.